



KREATIV FIKRLASHNI QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN?

Zaynalov Jahongir Rasulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent

Babamuratova Mahliyo Shuxrat qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Baxodirova Xamida Latifjon qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kreativ fikrlashni kundalik hayotda qo'llab rivojlantirsa bo'ladigan, amalda qo'llab samarali natijalarga erishilgan usullar ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola o'quvchilar va talabalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, muammolarga noodatiy yechimlar topish bo'yicha maslahatlar beradi. Maqolada brainstorming, 'Tasodifiy 3 ta so'z' metodi, 'Offline vaqt' usuli kabi mashqlar batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kreativ fikrlash, ko'nikma, g'oya, qobiliyat, muammolarga yechim*

Annotation. *This article examines practical and effective methods for developing creative thinking in daily life. The article provides students and learners with advice on expressing their ideas freely and finding unconventional solutions to problems. Exercises such as brainstorming, the "Random 3 Words" method, and the "Offline Time" technique are described in detail.*

Key words: *Creative thinking, skill, idea, ability, problem-solving*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются практические и эффективные методы развития креативного мышления в повседневной жизни. Статья даёт учащимся и студентам рекомендации по свободному выражению своих идей и поиску нестандартных решений проблем. Подробно описаны такие упражнения, как мозговой штурм, метод «Случайные 3 слова» и техника «Оффлайн-время».*

Ключевые слова: *Креативное мышление, навык, идея, способность, решение проблем*

Kirish

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat ko'p jihatdan insonning fikrlash qobiliyatiga bog'liq. Yangi texnologiyalar va raqobat sharoitida noodatiy g'oyalar har bir sohada yuqori baholanmoqda. Shu sababli, kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat o'qituvchilar, balki talabalar, o'quvchilar va har bir bo'lajak muvaffaqiyatli inson uchun muhim ko'nikmaga aylanishga ulgurgan. Kreativ fikrlash tug'ma qobiliyat emas. Ma'lumki, buni hayotimiz davomida shakllantirish va rivojlantirishimiz mumkin. Keling, kreativ fikrlashni rivojlantirish usullarini brainstorming, 'Tasodifiy 3 ta so'z' metodi va 'Offline vaqt' misolida ko'rib chiqamiz.



Brainstorming

Agar sizda muammo paydo bo'lgan bo'lsa, bu muammoga bir hattoki bir nechta yechim topishda **brainstorming** aynan siz uchun. Agar sizda 'Qiziq, nega bu usul brainstorming deb nomlangan ekan!?' degan savol tug'ilgan bo'lsa, tabriklayman, sizda kreativ fikrlash rivojlanish bosqichida. Keling, savolingizni javobini ko'rib chiqamiz. 'Brainstorming' atamasi ingliz tilidagi ikki so'zdan kelib chiqqan:

Brain – 'miya, fikr'

Storm – 'bo'ron, kuchli harakat'

Shunday qilib, brainstorming so'zi 'fikrlar bo'roni' ma'nosini bildiradi. Bu nom ushbu usulning asl mohiyatini ochib beradi. Brainstormingda; mavjud bo'lgan muammoga barcha o'ylangan yechimlar, g'oyalar yoziladi. Hech qanday tanqid qilinmaydi, hattoki, g'alati va amalga oshirsa bo'lmaydigan fikrlar ham. Sababi, maqsad bitta 'to'g'ri' javobni emas, balki imkon qadar ko'p variant topish. Ko'p variantlar esa eng foydali yechimlarni topishga va kreativ fikrlashga yordam beradi. Ushbu usul odatdagi fikrlardan qochishni ta'minlaydi. Bu usul nafaqat individual shaxslarga, balki, jamoaviy ishlashda ham samarali natijalarni beradi. Brainstormingni kunlik yoki haftalik mashq sifatida bajarsangiz, miyangizni erkin fikrlashga va yangi g'oyalar paydo bo'lish jarayonini tezlashtiradi.

'Tasodifiy 3 ta so'z' metodi

Agar sizga kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun eng oddiy va samarali usul kerak bo'lsa, ushbu metodni tavsiya qilamiz.

Metodning mohiyati:

Tasodifiy 3 ta so'z tanlanadi. Masalan, quyosh, kitob, suv

Ushbu so'zlar orasida bog'liqlik topish va birlashtirib yangi g'oya yaratish talab etiladi.

Fikrlarni yozib borish va eng qiziqclarini tanlash tavsiya etiladi.

Keling, yuqorida berilgan 3 so'zga (quyosh, kitob, suv) metodimizni qo'llaymiz.

'Erta bahorda yuqoriga ko'tarilgan quyosh tagida kitob o'qish juda maroqli. Yon atrofdagi ariqdan shirillab oqayotgan suv ovozi o'qishga yanada zavq qo'shadi.'

Bu misol 3 ta oddiy so'z ham yangi tasavvur, hissiyot, va yangi g'oyalar uy'onishini ko'rsatadi. Bu metod miyaning assotsiativ fikrlash qobiliyatini oshiradi va muammolarga noodatiy yechimlar topishga yordam beradi.

'Offline vaqt'

Hech sizda ma'lum bir muammongizga yechim biroz dam olib turganingizda yoki qisqa sayr, yurish kabi holatlardan keyin paydo bo'lganmi?

Ushbu savol navbatdagi usulimizni mohiyatini ochib beradi. 'Offline vaqt' usuli – bu kreativ fikrlashni rivojlantirishni eng dangasa usuli bo'lib, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalardan vaqtincha uzilish orqali miyani erkin fikrlashga majbur qiladi. Eng yaxshi g'oyalar ko'pincha hech narsani o'ylamagan – masalan, dush qabul qilish, yurish yoki uxlab yotish paytida keladi. Bu fanda isbotlangan va olimlar bu jarayonni



‘inkubatsiya nazariyasi’ deb atashadi. Bu nazariyaga ko’ra, miya muammoni ongsiz ravishda qayta ko’rib chiqadi va yechim kutilmaganda paydo bo’ladi. Ushbu metod miyani tashqi shovqinlardan himoya qiladi, fikrlarni tartibga soladi va diqqatni jamlash qobiliyatingizni oshiradi.

Xulosa

Kreativ fikrlash – zamonaviy inson uchun eng muhim ko’nikmalardan biridir. Uni rivojlantirish tug’ma qobiliyatga bog’liq bo’lmagan jarayon. Kundalik hayotda brainstorming, ‘Tasodifiy 3 ta so’z’ metodi, ‘Offline vaqt’ rejimi kabi oddiy va samarali metodlardan foydalanish orqali bu ‘qobiliyat’ni shakllantirishingiz mumkin. Ushbu metodlarni muntazam ravishda bajarib borishingiz shaxsiy rivojlanishingizni bir bo’lagi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, O. (2018). Ijodkorlik va kreativ fikrlash metodlari. Toshkent: “Sharq”.
2. Xolmirzaev, D. (2015). Ta’limda kreativ yondashuvlar. Toshkent: “Akademiya”.
3. Tursunov, S. (2020). Inson va ijodkorlik: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Fan va Ta’lim”.
4. Karimov, A. (2017). Kundalik hayotda kreativ fikrlashni rivojlantirish. Toshkent: “Yangi Asr Avlodi”.
5. Rustamov, N. (2019). Psixologiya va ijodkorlik. Toshkent: “Ma’naviyat”.

